

**Mamlakatimizda tovarlarni export qilishdagi muammolarni hal etish
chora-tadbirlari**

*Denov tadbirkorlik vxa pedagogika
instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti
Iqtisodiyot yo'nalishi 2I-2021-guruh 1-bosqich talabasi*

Ikrom O'rolovich Baxtiyorov

tell:+998915770425

E-mail:baxtiyorovikrom00@gmail.com

Annotatsiya: *Hozirda mamlakatimiz rivojlanishida katta o'rin tutgan tashqi savdo aloqalarida chet mamlakatlarga eksport qilish bo'yicha ko'rsatkichlar va mahsulotni jahon bozoriga olib chiqish bo'yicha chora tadbirlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Investitsiya, eksport, milliy mahsulot, tashqi bozor, kompensatsiya, tadbirkorlik faoliyati, aylanma mablag', prefensiya.*

KIRISH

Hozirda investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi mahalliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun vakolatli ega. U eksport qiluvchilarga xalqaro ko'rgazma-yarmarkalarda ishtirok etish, milliy mahsulotlar va brendlarni tashqi bozorlarga chiqarish hamda xalqaro standartlashtirish va xalqaro sertifikatlarni olish uchun sarflangan harajatlarni kompensatsiya qilib beradi. Bundan tashqari, eksport qiluvchilar agentlikka murojaat qilib, mahsulotni eksport bozorlariga tashish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizigacha qoplash uchun kompensatsiya, shuningdek, sug'urta xizmatlari eksport qiluvchilar tomonidan garov sifatida foydalanilgan taqdirda sug'urta mukofotining kompensatsiyasini olishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yilning 21-oktyabrda qabul qilingan "Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni

mamlakatda eksportni rag'batlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarning mantiqiy davomidir.[1] Shu bilan birga, hujjat eksport qiluvchilar uchun qator qo'shimcha imtiyozlarni nazarda tutadi. Xususan, hujjatda Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan eksport qiluvchi korxonalariga beriladigan kompensatsiyalar va kafolatlar bo'yicha yangi imtiyozlar tasdiqlandi.

EKSPORTNI TAKOMILLASHTIRISH

Bugungi kunga qadar tijorat banklarining eksportoldi kreditlari bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiyalar faqat ishlab chiqaruvchilar eksport qiluvchilarga berilgan bo'lsa, endilikda farmonga binoan ushbu preferensiya asosiy faoliyati savdo vositachiligi bo'lgan eksport qiluvchilariga ham joriy etiladi. Shuningdek shu paytgacha eksport qiluvchilarning tijorat banklaridan olingan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiyalarni taqdim etish foiz stavkasi qayta moliyalash stavkasining 1,5 baravaridan oshmaydigan kreditlarga nisbatan va faqat qayta moliyalash stavkasidan oshib ketgan qismida amalga oshirilgan. Endi esa foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya foiz stavkasi va kredit hajmidan qat'iy nazar taqdim etilgan bo'lsada aylanma mablag'larni to'ldirish uchun tijorat banklaridan olinadigan kreditlar bo'yicha taqdim etiladigan kafolat miqdori 4 milliarddan 8 milliard so'mgacha oshirildi. Bugungi kunga qadar kompensatsiya berilgan ilgari ajratilgan kredit bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda, eksport qiluvchi kompensatsiya va kafolat olish imtiyozidan qayta foydalana olmas edi. Endi esa oldingi kreditlar bo'yicha majburiyatlarga qaramay, ijobiy kredit tarixi bo'lgan holda qo'shimcha kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya va kafolatlar beriladi. Shu bilan birga, taqdim etilgan kafolatlar bo'yicha olinadigan komissiya miqdori 1 foizdan 0,5 foizgacha kamayishi ko'zda tutilgan. Ushbu farmonning qabul qilinishi bilan mahalliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash davlat instituti sifatida Eksportni rivojlantirish agentligining funksiyalari va vakolatlari kengaytirildi.

Endilikda Agentlikka tijorat banklarini eksportgacha moliyalashtirish va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini amalga oshirishga kreditlar ajratish

uchun moliyaviy resurslarni taqdim etish, shuningdek xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, xorijiy banklar va moliya kompaniyalari mablag'larini eksportgacha moliyalashtirishga jalb qilish bo'yicha vazifalarni hal qilish vakolati beriladi. Ushbu maqsadda Eksportni rag'batlantirish agentligi huzurida Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilmoqda, uning hisobidan tijorat banklariga eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish maqsadida moliyaviy resurslarni ajratish mexanizmi joriy etiladi. Kompensatsiya, subsidiyalar va moliyalashtirishni ta'minlashdan tashqari, tizimning funksiyalariga eksport shartnomasini tuzish bosqichigacha xorijiy xaridorni topish va muzokaralar jarayonida mahalliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash va shuningdek, respublika vazirliklari va idoralari, mahalliy hokimiyat organlari bilan eksport qiluvchilarning milliy eksport mahsulotlarini chet elga sotish, eksportni qo'llab-quvvatlash choralari, vakolatli davlat hukumat organlarining vazifalari va funksiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlash bo'yicha tizimli hamkorlikni o'rnatish kiradi. Milliy eksportni qo'llab-quvvatlash tizimining o'ziga xos afzalligi eksportchilarni "yagona oyna" tamoyili asosida kompleks qo'llab-quvvatlash imkoniyati bo'lib, ularga o'z faoliyatida duch keladigan masalalarning keng ko'lamini hal etishda vaqt yo'qotishlarini va moddiy xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi.


O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi 2018 yil yanvar-aprel oylarida 11,3 mlrd. AQSh dollarini, shu jumladan eksport 5,0 mlrd. AQSh dollarini va import 6,3 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi. Tashqi savdo aylanmasi saldosini minus 1,3 mlrd. dollarni tashkil etdi. Eksport tarkibida energiya manbaalari va neft mahsulotlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 66,2 foizga o'sishi tabiiy gazning 1,9 martaga oshgani hisobiga to'g'ri kelmoqda. Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar esa 7,3 foizga o'sdi, shundan plastmassa va plastmassa buyumlarining eksporti 16,7 foizga oshdi. Meva-sabzavot mahsulotlari eksportining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 41,6 foizga o'sishi oziq-ovqat mahsulotlari eksporti hajmining 41,9 foizga o'sishiga olib keldi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O'zbekiston Respublikasining chet mamlakatlarga oziq- ovqat mahsulotlarini eksport qilishdagi ulushi.

(1-diagramma)

Meva-sabzavot mahsulotlari eksportida yirik hamkor davlatlarning ulushi, foizda



Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ehtiyojmand aholining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishida aytib o'tganidek:

Biz Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni bartaraf etishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgiladik. Bu siyosat bugun biz barpo etayotgan xalqparvar va adolatli davlatning asosiy xususiyatiga aylanmoqda. Bugungi muborak kunlarda xalqimizga xos olijanoblik va mehr-muruvvat ramzi sifatida nuroniyларimiz, yolg'iz va ehtiyojmand bo'lgan opa-singillarimiz, aka-uka va farzandlarimizga e'tibor ko'rsatish, holidan xabar olib, dardiga malham bo'lish, o'ylaymanki, Yaratganga ham, xalqimizga ham, albatta, xush keladi".[2]

2018 yil yanvar-aprel oylarida tashqi cavdo aylanmasi saldosini minus 1310,5

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mln dollarni tashkil qildi, shundan MDH davlatlari bilan minus 835,5 mln dollar va boshqa davlatlar bilan 475,0 mln dollarni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasining chet mamlakatlarga oziq-ovqat va bir qancha tovarlarni eksport va import qilish ko'rsatkichlari.

(1-chizma)

	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan foizda	umumiy hajmga nisbatan foizda
Eksport	5008,9	148,8	100,0
paxta tolasi	135,4	60,2	2,7
oziq-ovqat mahsulotlari	243,9	141,6	4,9
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	313,1	107,3	6,2
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	721,6	166,2	14,4
qora va rangli metallar	263,3	99,8	5,3
mashina va asbob-uskunalar	80,0	92,9	1,6
xizmatlar	1483,3	141,3	29,6
boshqalar	1768,3	209,6	35,3
Import	6319,4	157,8	100,0
oziq-ovqat mahsulotlari	592,9	129,3	9,4
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	776,3	112,0	12,3
energiya manbaalari va neft mahsulotlari	335,6	130,5	5,3
qora va rangli metallar	514,1	127,4	8,1
mashina va asbob-uskunalar	2052,6	139,9	32,5
xizmatlar	1461,7	565,9	23,1
boshqalar	586,2	125,3	9,3

Xulosa va takliflar

Tashki savdoni tartibga solishda eng ko'p qo'llaniladigan usul importga tarif belgilash bo'lib, buning natijasida ichki baholarning o'sishi kuzatiladi. Importga tariflarni joriy qilishdan iste'molchilar ko'rgan zarar ishlab chiqaruvchilar va

davlat ko'rgan foydadan katta bo'ladi. Importga tariflarni joriy qilishdan ko'riladigan foyda va zararlar nisbati munozarali masaladir. Ammo import tariflari ichki ishlab [chikaruvchilarni himoya qilish](#), to'lov balansini tartibga solish maqsadlarida keng qo'llaniladi. Ichki ishlab chikaruvchilarni himoya qilish maksadida ishlab chikaruvchilarga subsidiyalar berish usuli xam qo'llaniladi. Eksportga subsidiyalar valyuta tushumini ko'paytirish, ortikcha maxsulotdan kutulish, tashki bozorni egallash uchun qo'llaniladi. Eksport subsidiyalarini ko'llash dempingga olib kelmasligi kerak, chunki demping xalqaro savdo qoidalariga ko'ra ta'qiqlangan. Tashki iqtisodiy faoliyatni litsenziyalash va kvotalar o'rnatish xalqaro savdoni tartibga solishning bevosita usullaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning so'zlagan nutqi.
2. Agapova T.A.Seregina S.F. Makroekonomika:Uchebnik.-7-e izd.pererab. i dop.-M.:Izdatel'stvo "Delo i servis", 2005. 314- 329 s.s.
3. Axmedov D.K.,Ishmuxamedov A.E., Jumaev K.,Djumaev Z.A. «Makro-iqtisodiyot» T.: O'zbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti 2004, 166-181 b.b.
4. Ivashkovkiy S.N. Makroekonomika: Uchebnik.-2-e izd., dop.- M.: Delo, 2002, 282-310 s.s.
5. Mejdunarodnie ekonomicheskie otnosheniya.: Uchebnik / Pod redaktsiey A.I. Evdokimova., M., "Prospekt", 2004., 201-23